Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA STATISTIK HISOBOTLARNI ELEKTRON KO‘RINISHDA TOPSHIRISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMI

MATKARIMOVA INTIZOR ATABAYEVNA
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD, dotsent
“Ma’mun universiteti” Nodavlat ta’lim muassasasi,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi,

Annatatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining statistik hisobotlarini tuzish va taqdim etish tartibining o‘ziga xos xususiyatlari, milliy statistika tizimida eStat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: rasmiy statistika, statistik hisobot, eStat 4.0, tadbirkorlik, elektron raqamli imzo, mikro firma va kishik korxonalar, 1-KB yillik hisobot shakli, census.stat.uz

Аннатация: данной статье анализируются особенности порядка составления и подачи статистической отчетности малого бизнеса и частного предпринимательства, предложения и рекомендации по совершенствованию автоматизированной информационной системы eStat 4.0 в национальной статистической системе.

Ключевые слова: официальная статистика, статистический отчет, eStat 4.0, предпринимательство, электронная цифровая подпись, микрофирмы и индивидуальное предпринимательство, 1-KB форма годового отчета, census.stat.uz

Annotation: This article analyzes the specifics of the procedure for compiling and submitting statistical reports of small businesses and private businesses, suggestions and recommendations for improving the eStat 4.0 automated information system in the national statistical system.

Keywords: official statistics, statistical report, eStat 4.0, entrepreneurship, electronic digital signature, micro-firms and individual entrepreneurship, 1-KB annual report form, census.stat.uz

Kirish. **So‘nggi yillarda O‘zbekistonda statistika sohasini yangi bosqichga ko‘tarish va tubdan isloh qilish, tizimga ilg‘or texnologiyalarni keng joriy qilish orqali rasmiy statistikaning sifati va unga bo‘lgan ishonchni yanada oshirish borasida keng ko‘lamli chora tadbirlar ko‘rilmoqda.** Ayniqsa, “Rasmiy statistika to‘g‘risida” [4]gi qonun va statistika sohasini rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiyaning[3] qabul qilinishi sohadagi tizimli yangilanishlarni yanada samarali amalga oshirish imkonini yaratdi. Shuningdek, Davlat statistika

Published: 05.06.2026

Cite this article: Matkarimova Intizor Atabayevna (2026). Raqamli texnologiyalar yordamida statistik hisobotlarni elektron ko‘rinishda topshirishning avtomatlashtirilgan tizimi. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/818

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF- 269- son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga aylantirilgan edi[1]. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24 fevral 2025 yildagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PF-27-sonli farmonida[2] ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etildi. [5].

Bundan tashqari statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandiki ular makroiqtisodiyot va tarmoqlar darajasida statistik kuzatuv o‘tkazish tizimini hamda ularning metodologiyasini xalqaro standart va tavsiyalarga muvofiq takomillashtirib borish, integratsiya jarayonlarini kengaytirish orqali statistik hisobotlarni qisqartirish va biznesga hisobot topshirish yukini kamaytirib borish, “mahalladan- respublikagacha” tamoyili bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish tizimini yaratish orqali ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash, shuningdek xorijiy statistika organlari hamda sohaga oid xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ular yordamida kadrlar salohiyatini oshirish, aholi, tadbirkorlik sub’ektlari va davlat organlari ehtiyojidan kelib chiqib yangi statistik mahsulot va xizmatlarni joriy etish maqsadlari belgilandi.

Asosiy qism. Milliy statistika hisobotlarini elektron ko‘rinishda topshirishning avtomatlashtirilgan tizimini bosqichma-bosqich tadbiq etish, elektron raqamli imzo, statistik hisobot, statistika hisobotini elektron shaklda yig‘ish axborot tizimi nima va statistik hisobotlarni elektron shaklda topshiruvchi sub’ektlar ulushi qanchani tashkil etadi? Bu kabi muhim savollarga javob topish uchun Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga murojaat qilamiz.

Statistika hisobotini elektron shaklda yig‘ish axborot tizimi — statistika hisobotini Internet tarmog‘i orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda taqdim etish va qayta ishlashni ta’minlovchi axborot tizimi.

Statistik ma’lumotlarni yig‘ish jarayonini avtomatlashtirishni “e-Stat” elektron shakldagi avtomatlashtirilgan axborot tizimi amalga oshiradi. Uni tadbiq etish esa bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Davlat statistika qo‘mitasi 2012 yilning feval oyidan boshlab davlat statistika hisobotlarini elektron ko‘rinishda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda Internet orqali yuborish tizimi joriy etildi.

Bu tizim hisobot topshiruvchilar uchun ham hisobot qabul qiluvchilar uchun ham qator qulayliklar yaratadi. Hisobot topshiruvchilar o‘z ish joylarida xisobotlarini elektron usulda to‘ldirib, ularni Internet orqali statistika organlariga yuboradilar. Bu esa mijozlarni statistika organlariga shaxsan tashrif buyurishdan

xalos etadi. Demak, yo‘lga va navbat kutishga ketadigan vaqt, shu bilan bir qatorda, statistika hisobotlarini to‘ldirishga ketadigan mehnat xarajatlari ham tejaladi.Shuningdek, davlat statistika hisobotlarini topshirishda byurokratiyani qisqartirish, qog‘oz hujjatlar aylanishini kamaytiradi, ma’lumotlarning tezligi, aniqligi va xavfsizligini oshiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Tizimning yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hisobot topshiruvchi hisobot shaklini to‘g‘ri to‘ldirmaguncha yuborish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Ya’ni tizim arifmetik va mantiqiy nazorat qilish funksiyasiga ega. Bu esa hisobot topshiruvchilarga hisobotlarni xatosiz to‘ldirish imkoniyatini beradi.Shuningdek, axborot tizimi barcha operatsion tizimlarini qo‘llab-quvvatlaydi, statistik kuzatuvlar bilan bog‘liq barcha jarayonlar haqida shaxsiy kabinet yordamida xabardor bo‘lib borish imkoniyatining yaratildi, axborot tizimidan topshirilgan hisobotlarni arxivga saqlash imkoniyati ham joriy etildi. Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hisobot shifrlangan holda Milliy statistika qo‘mitasiga internetdan yuboriladi.

Tahlil va natija. Prezidentimizning 24 fevral 2025 yildagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PF-27-sonli farmonga muvofiq, biznesga hisobot yukini kamaytirish maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakuni bo‘yicha hisobot davridan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflari ma’qullangan edi 2026 yildan boshlab:

Satistik hisobotlarni uch yilda bir marta yoki har yili topshirishi ya’ni:

- xodimlar soni yillik o‘rtacha 5 kishidan kam bo‘lgan va (yoki) yillik tushumi bazaviy hisoblash miqdorining 2 000 barobarigacha bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun;

- xodimlar soni 5 kishidan ortiq bo‘lgan va (yoki) yillik tushumi bazaviy hisoblash miqdorining 2 000 barobaridan ortiq bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun.

Shuningdek, 2026 yildan hisobot davridan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflari quyidagilar:

-Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan mazkur mikrofirma va kichik korxonalar faoliyati bo‘yicha ma’lumotlarni Soliq qo‘mitasining axborot tizimidan olib, statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish;

-Statistika organi hodimlarini kuzatuvlarga chiqarish va boshqalar.

Statistik hisobotlarni shakllari 2021 yildan 2025 yilgacha qisqartirilgan ya’ni:

-2021yilda -109 ta edi
-2022yilda -110 ta edi
-2023yilda -98 ta edi
-2024 yilda -72 taga qisqardi

-2025yilda -64 taga qisqartirmoqchilar

Yangi 2026 yildan raqamli tehnoligiyalarni joriy etish bo‘yicha ya’ni **s**un’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda statistik ma’lumotlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida:

-Maslahatchi interaktiv hizmati joriy etiladi;

-Tahlilchi konsultativ hizmati joriy etiladi;

-Call markaz ochilishi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining statistik hisobotlarni taqdim etish tartibi:

Bulardan tashqari Prezidentimiz qarorida Raqamli texnologiyalar vazirligi Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Statistika agentligi va Soliq qo‘mitasi bilan birgalikda 2026-yil 1-yanvarga qadar “tadbirkorlik subyektining shaxsiy kabineti” orqali hisobotlarni shakllantirish va davlat organlariga taqdim etishni nazarda tutuvchi Yagona hisobotlar tizimini joriy qilishi. Bunda “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi Yagona hisobotlar tizimining operatori etib belgilandi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari Statistika hisobotlari, internet jahon axborot tarmog‘i vositasida statistika hisobotini elektron shaklda yig‘ish axborot tizimi e-Stat orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda taqdim etiladi. **e-Stat** avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo‘lgan statistika hisobotlarining elektron shaklini (namunasini) O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika ko‘mitasining **www.hisobot.stat.uz** rasmiy saytidan olishlari mumkin. Bu dasturlar oldin “e-Stat 1.0”, “e-Stat 2.0”, “e-Stat 3.0” deb nomlangan.[6]

O‘zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya va «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish doirasida davlat statistika sohasida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning muhim qismi — **“eStat 4.0”** avtomatlashtirilgan axborot tizimidir. Tizim korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga davlat statistika hisobotlarini qog‘oz shaklda emas, balki to‘liq elektron ko‘rinishda, tez va qulay topshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda **“eStat 4.0”** avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali barcha turdagi davlat statistika hisobotlari (oylik, choraklik, yarim yillik va yillik) elektron shaklda topshiriladi.

Mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo‘lgan hisobot va boshqa ma’lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma’lumotlarini buzib ko‘rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g’isidagi kodeksning 215-moddasida belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq, axborot xavfsizligi va ma’lumotlarning maxfiyligi kafolatlanadi.

Barcha kichik korxonalar tomonidan yillik statistika hisoboti taqdim etishlishi belgilangan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har bir hisobot shaklini to‘ldirish uchun o‘rtacha sarflanadigan vaqt 4 soat ketgan.

2020 yildan boshlab statistika hisobotlarni qabul qilishning vebtexnologiyaga asoslangan zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimi **“eStat 4.0”** statistika agentligi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilib, ishga tushirildi. Hozirgi kungacha statistik hisobotlarni qabul qilish jarayonini mazkur axborot tizimidan foydalanib kelinmoqda.

Statistika idoralarining rasmiy saytida foydalanuvchilar o‘rtasida ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlarning sifatini baholab borish maqsadida muntazam so‘rovnomalar o‘tkazib kelinadi. Ushbu so‘rovnoma jami 5 ta savoldan iborat bo‘lib, savollarning birida foydalanuvchilardan e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish qulayligiga baho berish imkoniyati yaratilgan.

Axborot tizmining joriy etish orqali statistika hisobot blankalari uchun qog‘oz sarfi 2014 yilda 60 tonnani tashkil etgan bo‘lsa, hozirda barcha hisobot shakllari elektron shaklga o‘tkazildi hamda mazkur tizim orqali to‘plash joriy etildi. Xususan, 2022 yil yakuni bilan so‘rovnoma natijalarini o‘rganish davomida foydalanuvchilarning 70 foizdan ortig‘i axborot tizimiga kirish qulayligi, 85 foizi axborot tizimi interfeysining qulayligi, 82 foizi foydalanuvchilar uchun yaratilgan instrumentariylar qulayligi va 75 foizi axborot tizimining ishlash tezligini ijobiy baholashgan.[7]

Statistika idoralari tomonidan xalqaro tavsiyalarga muvofiq hamda respondentlarga hisobot taqdim etish yuklamasini bosqichma-bosqich qisqartirib borish maqsadida, doimiy ravishda statistika kuzatuvi shakllari takomillashtirib borilada. Jumladan, 2023 yil uchun statistika hisoboti shakllarida quyidagi o‘zgarishlar amalga oshirildi:

-4ta hisobot shakllarini o‘zaro birlashtirish, ma’muriy ma’lumotlarga o‘tkazish va mavsumiyligini hisobga olgan holda bekor qilindi;

-62ta statistika hisoboti va ularning ilovalaridagi ko‘rsatkichlar sonini 2022 yilga nisbatan jami 3 174 taga yoki 17,7%ga qisqartirish orqali soddalashtirildi;

-47ta hisobot shakllarining topshirish muddatlari respondentlarga qulay bo‘lishini inobatga olib maqbullashtirildi.

Ko‘rilgan chora tadbirlar natijasida, 2022 yilga nisbatan statistika hisobotlari jami soni 10,9%ga, shu jumladan oylik hisobotlar 14,3%ga, mavsumiy hisobotlar 33,3%ga va yillik hisobotlar 12,2%ga qisqartirildi.

Natijada, 2023 yil uchun 98 ta (2022 yilda 110 ta) hisobot shakllari tasdiqlandi va Adliya vazirligidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Statistika idoralari tomonidan xalqaro tavsiyalarga muvofiq hamda respondentlarga hisobot taqdim etish yuklamasini bosqichma bosqich qisqartirib borish maqsadida, doimiy ravishda statistika kuzatuvi shakllari takomillashtirib boriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat statistika hisobotlarini elektron ko‘rinishda topshirishning avtomatlashtirilgan tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish hisobiga ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik subektlari faoliyati uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish hamda statistika sohasida ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish orqali mamalakatning statistika salohiyatini oshirish kabi yuksak maqsadlarga erishish mumkin.

Shuningdek, **“eStat 4.0”** avtomatlashtirilgan axborot tizimi O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Uning yordamida milliy statistika ma’lumotlarining sifati oshadi, davlat qarorlari ilmiy asosda qabul qilinadi va fuqarolar uchun ochiq ma’lumotlar ko‘payadi.Kelajakda tizim yanada takomillashtirilib, sun’iy intellekt elementlari qo‘shilishi, ma’lumotlarni avtomat ravishda integratsiya qilish va yanada qulay interfeys yaratilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF- 269-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.09.2025 yildagi PF-173-son “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”
3. 2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasi.Toshkent-2019 yil.
4. 2021 yil 11 avgustda “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-707-son).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24 fevral 2025 yildagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PF-27-sonli farmoni
6. Gulyamom S.S, Ahmedova M.N, Akbarpova M.R. (2014). Elektron xukumat milliy tizimining tatbiq qilinishi va rivojlanish istiqbollari. Toshkent. –79 b.
7. Маткаримова.И.А.(2014).Совершенствование базы экономических статистических информациий (на примере Узбекистана).Молодой учёный №8 (67) июн-1, Россия.

8. https://stat.uz

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti